

## IJODIY QOBILIYATNING FAOLLASHUVIDA KOMPOZITSIYANING O'RNI

*Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna*

*Stajyor O'Qituvchi, Guliston davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san'at xususan, kompozitsiyada mavjud asosiy qonuniyatlar, ularning o'rni va ahamiyati, atrof-muhit va borliqning ranglar kompozitsiysi orqali tasvirlanishi hamda uning inson kayfiyati va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini yanada faollashtirishdagi ta'siri xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, rangtasvir, rang, moybo'yoq, uslub, kolorit, kontrast, rassom.

**Kirish.** Kompozitsiya –bu ilm, unda tanlangan o'lchamli qog'oz yoki xolst (va boshqa ashyolar) yuzasida detallarni shunday joylashtirish kerakki, ular yaxlit bir butunlikni tashkil qilishi kerak. Kompozitsiyada ideal holatga kelganida esa, unga na biror detal, chiziq qo'shimcha kiritishning, yoki biror ortiqcha detalni o'chirib tashlashning iloji bo'lmaydi. Yaxshi topilgan kompozitsiya yechimi asarning asosi hisoblanadi. Ushbu bilim va ko'nikmalar, kompozitsiya qonunlari, asrlar mobaynida o'zgarmasdan kelmoqda va bu kompozitsiyaning poydevoridir. Kompozitsiyaning badiiy yechimi muvaffaqiyatli topilgan taqdirda, tomoshabin asardagi ba'zi kamchiliklarni e'tiborsiz qoldirishi mumkin. Demak, asar kompozitsiyasining badiiy yechimining ahamiyati beqiyosdir [1]. Kompozitsiya san'at asarining umumiy qurilishini tashkil etuvchi, detallar o'rtasidagi munosabat va muvozanatni saqlashga yordam beruvchi asosiy vositadir. Asar tuzilishidagi to'g'ri chiziq, ranglar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, detallardagi plastikliklar ham tomoshabinga yaxlit badiiy, ishonchli ijodiy asarlarini yaratishdagi asosiy maqsadini ochib berolmaydi. Zero, asarning yaxlitligi hamma narsa bir vaqtning o'zida o'zaro uyg'unlikka bo'ysunishini talab qiladi. Kompozitsiya san'atkorning asar yaratish uchun hayotini o'rganishi, bilishi jarayonida shakllanadi. Makondagi narsalarning asarda joylashtirilishi, ularning o'zaro munosabatini ifodalash, rang berish, asosiy va ikkinchi darajali narsani ko'rsatish, bo'yoqlardan foydalanish, yorug'lik va soya ifodasi, proporsiya, simmetriya kabilarga ahamiyat berilishi kompozitsiya yaratish jarayonidagi asosiy ishlardir [2:10]. **Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Demak, kompozitsiyani san'at asarining barcha elementlari – rang, shakl, chiziq, tekstura, va boshqa tasviriy vositalarni birlashtiruvchi, ular o'rtasidagi bog'liqlikni va muvozanatni ushlab turuvchi deyishimiz mumkin. Kompozitsiyaning yaxshi topilgani tomoshabinga rassomning g'oyasi va maqsadini aniq va samarali tarzda yekazish imkonini beradi. Tasviriy san'atda asarning muvaffaqiyati ko'pincha kompozitsiyaning to'g'ri qurilganiga bog'liq bo'lganligi uchun kompozitsiya har bir san'at asarining asosiy qismini tashkil etadi. Jumladan, uyg'onish davri rassomi Leonardo da Vinchining mashhur "Mona Liza" portretini kuzatar ekanmiz, uning asarni yaratishda kompozitsiyaning ajoyib qoidalarini qo'llaganligini ko'ramiz. Rassom qahramonning yuz ifodasi, ranglari va chiziq, yordamida uning ichki dunyosini ya'ni, yuzning markaziy o'rni va og'irlik markazlari, nafas olishning izchil ifodalanishi, kompozitsiyaning mahoratini ochib berishga muvaffaq bo'lgan. Uning asarida yuzning markaziy o'rni va og'irlik markazlari, nafas olishning izchil ifodalanishi, kompozitsiyaning mahoratini ko'rsatadi.

Kompozitsiyaning ijodiy faollikdagi ahamiyati rassomning asarida amalga oshirgan maqsadiga bog'liqdir. Ya'ni, ijodiy faollik, san'at asarini yaratish jarayonida ijodkorning o'z so'zini, g'oyalari va his-tuyg'ularini ifodalay olish imkoniyatidir.

**Muhokama.** Bunda kompozitsiyaning bir nechta vazifalari bo'lib, bular:

*Izohli ifoda:* Rassom g'oyasini, asardagi voqea va hodisalarni shakl va ranglar orqali tomoshabinga yetkazishda kompozitsiya muhim rol o'ynaydi. Asar kompozitsiyasi to'g'ri tashkil etilsa, tomoshabin asarni to'g'ri tushinishi va uning mazmuniga chuqurroq anglashi mumkin.

*Emotsional ta'sir:* To'g'ri tanlangan va qo'llanilgan shakl va ranglar o'rtasidagi muvozanat va kontrastlar, tomoshabinda kuchli hissiyotlarni uyg'otish xususiyatiga ega bo'lib, u san'at asarini tomoshabinga emotsional ta'sir o'tkazishga imkon beradi. Masalan, simmetrik kompozitsiya tinchlik va muvozanatni aks ettirsa, asimmetrik kompozitsiya ko'proq dinamika va harakatni ifodalaydi. Jumladan, asardagi ranglarning ham ramziy ma'nolari mavjud bo'lib, qadimda ajdodlarimiz insonlarning yuzining rangiga qarab, kasalliklarini aniqlaganlar. Ranglar orqali falsafiy fikrlaganlar. Masalan: sallaning rangiga qarab kishilarning mansabi, mazhabi kabi ma'lumotlarni bilishgan. Bugungi kunda ham tasviriy san'atning rivojlanishida rangtasvirning ahamiyati katta bo'lib, ranglar inson hayotida o'ziga xos o'ringa ega. Zero, ranglar insonning kayfiyatiga, psixologiyasiga o'zining ijobiy va samarali ta'sirini o'tkaza oladi. Bundan tashqari, yoshlarga atrofdagi jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash bilan birga, ularning konstruktiv tuzilishi, nisbatlari, perspektiva qonun-qoidalarini, ranglar, tabiatdagi ranglar koloritini, kontrastlilikini nazariy va amaliy jihatdan o'rgatibgina qolmay, ularda estetik didlarini o'stirishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atda estetik tushunchalar go'zallik, estetik tajriba, tasviriylik va simbolizm kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Go'zallikning har davr va madaniyatda o'ziga xos talqinlari bo'lgan va u kompozitsiyaning asosiy tushunchasi bo'lib, insonlarning estetik qadriyatlarini belgilab, tasviriy san'atda o'z ifodasini topgan [3].

*Ijodiy tajriba:* Kompozitsiya, rassomga ijodiy erkinlik beradi. Ya'ni, ko'nikmalarini amalga oshirishda ranglar va shakllarni joylashtirish, elementlar orasidagi munosabatlarni aniqlash-bularning barchasi rassomning ijodiy jarayonida erkinligini ta'minlaydi. Asardagi har bir shakl va elementning o'rni va ularga berilgan ahamiyat, rassomning shahsiy va ijodiy yondashuvini ifodalaydi.

*Kompozitsiyada stilistik mahoratni qo'llash:* Har bir rassomning o'ziga xos uslubi bo'lib, o'zida stilistik mahoratni rivojlantiradi va bu ularning asarlarida o'ziga xos xususiyatni yaratishga yordam beradi. Masalan, ispan rassomi, haykaltarosh, grafikachi, keramikachi, dizayner va kubizmning asoschisi Pablo Pikasso, shakl va maydonni yangi kompozitsiyaviy tartibda tuzish orqali tasviriy san'atda yangi uslubni yaratgan. Uning kompozitsiyalari, tomoshabinni o'ziga xos o'yga toldirib, boshqacha tarzda o'ylashga undaydi. Uning kompozitsiyalarini kuzatar ekan, tomoshabin beixtiyor rassomning o'y xayollari bilan qiziqadi. **Natijalar.** Bugungi kunda rassomlar orasida Akmal Nur, Xurshid Ziyaxanov, Dilbek, To'xtaqulov, Fayzullo Ahmadaliyev, Dilafruz Karshiboyeva kabi o'ziga xos uslub va falsafiy yondashuvlarda ijod qiluvchi ko'plab ijodkorlarni uchratamiz. Xususan, D.Karshiboyevaning "Hayot daraxti" nomli asarini tahlil qiladigan bo'lsak, kompozitsiya grafika uslubida yozilgan bo'lib, undagi oq-qora chiziqlar orqali hayotning yaxshilik va yomonlik, tinimsiz harakat va mashaqqatlarni mohirona tasvirlanganligini guvohi bo'lamiz. Grafika asarlari asosini shtrixlar, konturli, yaxlit qism va boshqa chizmatasvirlar tashkil qiladi. (asosan oq va qora ranglarda)[4]. Mazkur asarda inson tanasi timsolidagi daraxtning har tomonga o'sib ketgan shoxlari, novdalari, daraxt atrofidagi tog'lar, bulutlar, qaldirg'ochlar, arava, beshik va turli naqshlarni



ko'ramiz. Bu insonning tug'ilishi bir biroq, taqdirining turli tomon va turli ko'rinishlarda ekanligidir.

**Xulosa.** Asarning barcha qismi ramziy ma'nolar bilan chambarchas bo'lib, tomoshabinni beixtiyor xayotning shodliklari-yu, g'am anduxi to'g'risidagi falsafasi haqidagi o'yga toldiradi. Dunyo lazzati va tashvishlari bilan sarmast, ovvora qushlar–inson qalbi, ko'ngli timsolidir. Qaldirg'och, umr mazmunini tashkil etuvchi moddiy dunyo atrofida chirpirak bo'lib aylanaveradi, umr nihoyasiga yetganida esa, birgina eshik orqali ruhlar olamiga qadam qo'yadi va afsuski, hayot daraxti seningsiz ham yashnashda, yashashda davom etadi va bu naqadar alamli. Mazkur polotnoda rassom, falsafiy mushohada bilan insonni borliq, hayot mazmunini anglab yetishga chorlaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, tasviriy san'atda kompozitsiyaning o'rni va uning ijodiy faollikdagi ahamiyati beqiyosdir. Kompozitsiya ijod jarayonida ijodkorga g'oyasi va his-tuyg'ularini erkin, samarali tarzda ifodalash, o'z ijodiy yondashuvlarini rivojlantirish, tomoshabinlar bilan emotsional aloqalarni o'rnatish va o'z asarlarida stilistik mahoratni namoyish etishga zamin yaratadi. Demak, kompozitsiya asarning eng muhim va ajralmas tarkibiy qismi ekanligini bilishimiz mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bohodirovna, Karshiboyeva Dilafuz. "TASVIRIY SAN'ATDA O'ZBEK MILLIY O'YINLARI KOMPOZITSIYASINING YORITILISHI VA UNING TARBIVAVIY AHAMIYATI." *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH* 7.12 (2024): 34-37.
2. N.Xusanov "Kompozitsiya (dastgohlik grafika)" Qo'llanma. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2007.
3. Bohodirovna, Karshiboyeva Dilafuz. "TASVIRIY SAN'AT VA FALSAFA O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK HAMDA ULARDAGI ESTETIK TUSHUNCHALARNING INSONIYAT MADANIYATIGA TA'SIRI." *Научный Фокус* 2.19 (2024): 356-358.
4. Boxodirovna, Karshiboyeva Dilafuz. "GRAFIKA SAN'ATI TARIXI VA RIVOJLANISHI." *Journal of new century innovations* 12.3 (2022): 26-30.
5. Ch, Sadatov, and D. O. Xamidov. "AUTOCAD DASTURINING UCH O'LCHAMLI LOYIHALASH IMKONIYATLARI." MODELING" PANELI BUYRUQLARI." VISUAL STYLES", "VIEW" PANELI BUYRUQLARI VA ULARNING IMKONIYATLARI." *Экономика и социум* 5-2 (108) (2023): 325-329.
6. Xamidov, Dilshod. "THE IMPORTANCE OF TEACHING" ENGINEERING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS" IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS." *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING* 4.2 (2024): 320-323.
7. Berikbaev, Alisher. "TEACHING PROFESSION AND SKILLS WAYS TO BE A TEACHER." *Archive of Conferences*. Vol. 23. No. 1. 2021.
8. Rustambek o'g'li, Khudoyberdiyev Dostonbek. "USING NEURAL NETWORKS TO ANALYZE THE CREATIVE PROCESS." *INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS* 3.33 (2025): 63-67.